

---

## Qo'shtepa tumanida mukammal ta'mirlangan yana bir maktab binosi foydalanishga topshirildi

Qo'shtepa tumani "Shomirza" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 23-umumta'lim maktabining mukammal ta'mirlangan yangi binosi foydalanishga topshirildi.

Shu munosabat bilan tashkillangan tantanali marosimda sektor rahbarlari, mahalla faollari, sohaga aloqador tashkilotlar vakillari, ota-onalar, maktab o'qituvchilari va o'quvchilari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida tuman hokimi Anvarjon Abdullayev so'z olib, maktab jamoasi va mahalla ahlini yangi bino foydalanishga topshirilishi bilan samimiy qutladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor, yosh avlodga sifatli ta'lim berish va tarbiyalash uchun yaratilayotgan imkoniyat va qulayliklar haqida alohida to'xtalib o'tdi.

Shundan so'ng, maktabda qurilish va ta'mirlash ishlarini olib borgan quruvchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Tantanada mehmonlar tomonidan lentalar qirqilgach, maktabning ramziy kaliti o'z egalariga topshirildi. Mehmonlar ta'lim muassasasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishishdi.

Ta'kidlanishicha, maktabning asosiy binosi 1975 yilda qurilgan. Joriy yilda investisiya dasturi asosida ushbu ta'lim maskanida mukammal ta'mirlash, shuningdek 12x24 sport zali qurish ishlari amalga oshirildi. Qurilish-ta'mirlash ishlariga 4 milliard 369 million so'm mablag' sarflandi.

Natijada, ushbu maktab tumandagi zamonaviy va ko'rkam ziyo maskanlaridan biriga aylandi.

Endilikda 500 nafardan ziyod o'quvchi-yoshlar yangi ochilgan, barcha qulayliklarga ega zamonaviy ta'lim muassasasida tahsil oladi.

2024-12-18 16:33:55